TURIZM INDUSTRIYASI VA INFRATUZILMASI TUSHUNCHALARINING QIYOSIY KONTENT-TAHLILI

Mamatqulova Odinaxon Yorkinjon qizi
Farg‘ona davlat universiteti
2-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya: *Maqolada xorijiy, Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (MDH) va o‘zbek tilidagi ilmiy manbalarda turizm industriyasi hamda turizm infratuzilmasi tushunchalariga berilgan ta'riflar o‘rganilgan. Yetti ta asosiy manba asosida qiyosiy tahlil amalga oshirilgan va natijalar jadval shaklida taqdim etilgan.*

Kalit so‘zlar: *turizm industriyasi, turizm infratuzilmasi, ilmiy ta'rif, qiyosiy tahlil, turizm tizimi.*

KIRISH

Jahon miqyosida turizm sohasining jadal o‘sishi bu sohani ilmiy o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni ham keskin oshirmoqda. So‘nggi o‘n yilliklarda turizmning milliy iqtisodiyotlardagi ulushi sezilarli darajada kengayib, bir qator davlatlarda u asosiy xizmat ko‘rsatish tarmoqlaridan biriga aylandi [1, B.6]. Bunday sharoitda turizm sohasining asosiy tushunchalarini — jumladan turizm industriyasi va turizm infratuzilmasini — to‘g‘ri ta'riflash nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham katta ahamiyat kasb etadi.

Ushbu tezisda xorijiy, MDH va milliy adabiyotlarda ushbu ikki tushunchaga berilgan ta'riflar o‘rganiladi. Goeldner C.R. va Ritchie J.R.B. (2012) asarida turizm «faoliyatlar, xizmatlar va industriyalar majmui» sifatida tavsiflangan bo‘lib, mualliflar alohida «turizm industriyasi» atamasini ishlatmaydilar [2, B.24]. Ularning konseptual modelida infratuzilma «Built Environment» — ya'ni qurilgan muhit — qatlami sifatida ifodalangan [2, B.30].

MDH adabiyotida Kvartalnov V.A. (2003) turizm industriyasini yo‘lovchi transporti, ixtisoslashgan korxonalar va turist uchun mo‘ljallangan xizmatlar sohasini o‘z ichiga oluvchi tarmoqlararo majmua sifatida belgilaydi [3, B.18]. Kabushkina N.I. va Durovich A.P. (2003) turizm industriyasini turistik mahsulotni ishlab chiqarish va taqsimlash jarayonlarini amalga oshiruvchi tashkilotlar yig‘indisi sifatida ta'riflaydi [4, B.72]. Tishukov Y.V. (2007) esa bu tushunchani turistlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xizmat ko‘rsatuvchi turli tashkilotlarning birligi sifatida ifodalaydi [5, B.5]. Ushbu uch manbada turizm infratuzilmasiga mustaqil ta'rif berilmagan.

Milliy adabiyotda Mirzayev M.A. va Aliyeva M.T. (2011) turizm industriyasi va infratuzilmasini bir-biridan ajratib, ikkalasiga ham mustaqil ta'rif bergan [6, B.130; 142]. Xonkeldiyeva G.Sh., Mirzayev A.T. va Xomidov Q.Q. (2020) turizm industriyasini ta'riflab, xalqaro turistik faoliyatlar klassifikatsiyasi (SIKTA) tizimini ham tahlil qilgan, biroq infratuzilmani alohida ko‘rib chiqmagan [7, B.178-180]. Tuxliyev I.S. va Hayitboyev R. (2023) ikkala tushunchani ham batafsil tarkibiy qismlarga ajratib berib, turizm industriyasini 10 ta, infratuzilmasini esa 9 ta segmentga bo‘lgan [8, B.150-158].

Tahlil qilingan manbalar asosida tuzilgan qiyosiy jadval quyida keltirilgan.

1-jadval. Turizm industriyasi va infratuzilmasiga ilmiy yondashuvlarning qiyosiy ko‘rinishi

Muallif (yil)	**Qo‘llangan atama**	**Turizm industriyasi ta'rifi**	**Turizm infratuzilmasi ta'rifi**
Goeldner C.R., Ritchie J.R.B. (2012)	Tourism — faoliyatlar, xizmatlar va industriyalar majmui	Sayohat tajribasini ta'minlovchi transport, joylashtirish, ovqatlanish, ko‘ngilochar va boshqa mehmondo‘stlik xizmatlarining yaxlit majmui [2, B.24]	Aniq ta'rif yo‘q; modelda «Built Environment» (qurilgan muhit) qatlami sifatida aks ettirilgan [2, B.30]
Квартальнов В.А. (2003)	Turistskaya industriya — tarmoqlararo kompleks	Yo‘lovchi transporti, ixtisoslashgan turistik korxonalar va turist foydalanadigan xizmatlar sohasini birlashtiruvchi tarmoqlararo iqtisodiy majmua [3, B.18]	Alohida ta'rif ko‘rsatilmagan; infratuzilma elementlari industriya tarkibida qayd etilgan
Кабушкина Н.И., Дурович А.П. (2003)	Turizm industriyasi — korxonalar majmui	Turistik mahsulotni ishlab chiqarish, taqsimlash va iste'mol qilish, turistik resurslarni o‘zlashtirish hamda moddiy-texnika bazasini shakllantiruvchi tashkilotlar majmui [4, B.72]	Alohida ta'rif ko‘rsatilmagan
Тишуков Ю.В. (2007)	Turizm industriyasi — xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar to‘plami	Mehmonxona, transport, ovqatlanish, dam olish, sog‘lomlashtirish, sport, turoperatorlik, turagentlik, ekskursiya va gid-tarjimonlik xizmatlarini amalga oshiruvchi tashkilotlar birligi [5, B.5]	Alohida ta'rif ko‘rsatilmagan
Mirzayev M.A., Aliyeva M.T. (2011)	Turistik industriya va turizm infratuzilmasi — mustaqil tushunchalar	Joylashtirish, tashish, ovqatlanish, ko‘ngil ochish, davolash, sport, ishbilarmonlik maqsadlardagi vositalar, turoperatorlar, turagentlar va gid-tarjimonlar xizmatlarining uyushgan majmui [6, B.130]	Turistik resurslardan foydalanishni ta'minlovchi bino-inshoot tizimi, yo‘llar, muhandislik va kommunikatsiya tarmoqlari, xizmat ko‘rsatish korxonalari majmui [6, B.130; 142]
Xonkeldiyeva G.Sh. va boshq. (2020)	Turizm industriyasi — o‘xshash faoliyatlar majmuasi	Mehmonxonalar, transport, ko‘ngilochar ob'ektlar, sog‘lomlashtirish, sport tashkilotlari hamda ekskursiya va gid-tarjimonlik xizmatlarini qamrab oluvchi majmua; SIKTA bo‘yicha 17 bo‘lim, 43 guruh, 121 sinfdan iborat [7, B.178-180]	Alohida ta'rif ko‘rsatilmagan

Muallif (yil)	Qo‘llangan atama	Turizm industriyasi ta'rifi	Turizm infratuzilmasi ta'rifi
Tuxliyev I.S., Hayitboyev R. (2023)	Turizm industriyasi va infratuzilmasi — alohida tarkibiy tasnif	10 ta segment: tashkillashtirish, transport, joylashtirish (14 tur), ovqatlantirish (8 tur), sayohat joylari bilan tanishtirish, bo‘sh vaqt, turoperatorlar, turagentliklar, transport xo‘jaligi, mehmonxona xo‘jaligi [8, B.150-156]	9 ta segment: bino-inshootlar, sug‘urta, xavfsizlik, mol-mulk muhofazasi, muhandislik-kommunikatsiya, bank-moliyaviy xizmatlar, axborot, kompyuter xizmati, gid-ekskursiya [8, B.158]

Manba: ko‘rsatilgan adabiyotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, o‘rganilgan yetti manbadan beshtasida turizm infratuzilmasiga alohida ta'rif berilmagan. Shuningdek, mualliflar turizmning tarkibiy elementlarini ifodalashda turlicha atamalar — «turizm industriyasi», «tarmoqlararo kompleks», «faoliyatlar va industriyalar majmui», «xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar to‘plami» — qo‘llagan. Bu holat mazkur tushunchalar bo‘yicha ilmiy adabiyotlarda yagona yondashuvning shakllanmaganligidan dalolat beradi va sohada keyingi tadqiqotlar olib borilishini zarur qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Aliyeva M.T. Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida turizm xizmatlari sohasini boshqarishni takomillashtirish. Monografiya. — T.: Innovatsion rivojlanish, 2023. — 240 b.
2. Goeldner C.R., Ritchie J.R.B. Tourism: Principles, Practices, Philosophies. 12th ed. — John Wiley & Sons, 2012. — 592 p.
3. Квартальнов В.А. Туризм. — М.: Финансы и статистика, 2003. — 320 с.
4. Кабушкина Н.И., Дурович А.П. Организация туризма. — Минск: ООО «Новое знание», 2003. — 432 с.
5. Тишуков Ю.В. Потребитель на рынке туристических услуг. — Ростов-на-Дону: Феникс, 2007.
6. Mirzayev M.A., Aliyeva M.T. Turizm asoslari: O‘quv qo‘llanma. — T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2011. — 288 b.
7. Xonkeldiyeva G.Sh., Mirzayev A.T., Xomidov Q.Q. Xalqaro turizm. — T., 2020.
8. Tuxliyev I.S., Hayitboyev R. Turizm asoslari. — T.: SIES universiteti, 2023.